I. YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma‘lumotlarga ko‘ra, 2023- yil yanvar- iyun oylarida ishlab chiqarilgan yalpi hududiy mahsulotning (YAHM) hajmi 36 242,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan o‘sish sur‘ati 104,6 foizga teng bo‘ldi.

2023- yil yanvar- iyun oylarida YAHM deflyator indeksi 108,8 foizni tashkil etdi.

Yalpi hududiy mahsulot (YAHM) - milliy hisoblar tizimining asosiy ko‘rsatkichi bo‘lib, muayyan davrda mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident - institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YAHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha yalpi qo‘shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig‘indisi orqali hisoblanadi.

Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM **34 178,1** ming so‘mni tashkil etdi.

Yanvar-iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha tarkibi

	mlrd. so‘m		*o‘sish sur‘ati, % da*
	2022- yil	*2023- yil*	
I. Yalpi hududiy mahsulot, jami	**31 836,4**	**36 242,5**	**104,6**
shu jumladan:			
Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	31 144,3	35 659,5	104,6
Mahsulotlarga sof soliqlar	692,1	583,0	104,8
II. Tarmoqlarning yalpi qo‘shilgan qiymati	**31 144,3**	**35 659,5**	**104,6**
Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi	3 465,1	4 033,1	103,4
Sanoat (qurilishni qo‘shgan holda)	23 612,5	26 815,0	104,9
sanoat	22 482,4	25 521,4	104,8
qurilish	1 130,1	1 293,6	107,2
Xizmatlar	4 066,7	4 811,4	103,9

	mlrd. so‘m		o‘sish sur‘ati, % da
	2022- yil	2023- yil	
savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlar	920,8	1 094,3	104,6
tashish va saqlash, axborot va aloqa xizmatlari	538,6	613,4	102,4
boshqa xizmatlar	2 607,3	3 103,7	104,0

Yanvar- iyun oylarida yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar tarkibi, (% da)

2023- yilning yanvar- iyun oylarida viloyat yalpi hududiy mahsulotining o‘sish sur‘atiga ijobiy ta‘sir, savdo, yashash va ovqatlanish bo‘yicha xizmatlari (104,6 %), boshqa xizmatlari (104,0 %), qurilish (107,2 %), sanoat (104,8 %) va qishloq, o‘rmon va baliqchilk xo‘jaligi (103,4 %) tarmoqlaridagi yalpi qo‘shilgan qiymat hissasiga to‘g‘ri keldi.

YAHM ishlab chiqarish umumiy hajmining 24,6 foizi kichik tadbirkorlik (biznes) hissasiga to‘g‘ri keldi va bu ko‘rsatkich 2022-yilning yanvar-iyuniga nisbatan 0,9 foizga ko‘paydi.

2023- yil yanvar- iyun oylarida YAHM ning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha deflyator indeksi, (% da)



Aholi jon boshiga hisoblangan YAHM hajmi va mutlaq o‘sish sur‘atlari